Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish	1024
Ilyasova Barno Axmadowna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
Qarshihev Daniyar Eshpulatovich , iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modellashtirish.....	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar	1046
Yuldashev Feruz Isroi o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari	1052
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari	1058
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda olyi ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi	1064
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы	1070
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции	1075
Бабаева Гузаль Яшиновна , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili	1081
Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni.....	1086
Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi	1091
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
O'zbekistonda olyi ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uni amal qilish mexanizmi	1095
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	



O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYASI VA UNI AMAL QILISH MEXANIZMI

Muxtorova Umida Karimovna

Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lif tashkiloti,
"Iqtisodiyot" fakulteti, "Iqtisodiyot" kafedrasи katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada, ta'lif xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirish tizimida bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida marketing tizmining o'rni bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini tashkil etish va tizimning faoliyat samaradorligini oshirishda marketing strategiyasiga nisbatan tizimli yondashuvlarni amalga oshirish zaruriyati asoslangan.

Kalit so'zlar: ta'lif xizmatlari bozori, ta'lif tizimi, mehnat bozori, marketing strategiyasi, marketing tadqiqotlari, raqobatbardoshlik.

Abstract: The article examines the processes associated with the role of the marketing system in the formation of market relations in the system of organization and development of educational services. This is the basis for the organization of the higher education system of the Republic of Uzbekistan and the need to implement systematic approaches to marketing strategy in increasing the efficiency of the system.

Key words: market for educational services, education system, labor market, marketing strategy, marketing research, competitiveness.

Аннотация: Статье исследуются процессы, связанные с ролью системы маркетинга в формировании рыночных отношений в системе организации и развития образовательных услуг. На этом основана организация системы высшего образования Республики Узбекистан и необходимость реализации системных подходов к маркетинговой стратегии в повышении эффективности системы.

Ключевые слова: рынок образовательных услуг, система образования, рынок труда, маркетинговая стратегия, маркетинговые исследования, конкурентоспособность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining muhim infratuzilmaviy tarmoqlaridan biri ta'lif tizimi bo'lib, uni rivojlantirish har bir davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy turmush darajasining yuksalishi ta'lif tizimining raqobatbardoshligi va ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bilan belgilanadi.

Dunyo miqyosida ta'lif xizmatlariga talab miqdorini oshirish maqsadida iste'molchilarining ta'lif sifatidan qoniqishlarini o'rganishga qaratilgan marketing tadqiqotlarini takomillashtirishga oid ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi kunda ta'lif xizmatlari bozorini rivojlantirishning muhim tadqiqot yo'nalishlari orasida ta'lif xizmatlari bozorini rivojlantirishga asosiy to'siq bo'lib kelayotgan muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini izlashga qaratilgan marketing tadqiqotlarini o'tkazish hozirgi davrdagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Bu boradagi izchil islohotlar samaradorligini oshirish zaruriyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev quyidagicha to'xtalib o'tgan edi: "Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlari tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lif va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" [9]. Bu kabi kompleks vazifalarning amaliy ijrosi ta'lif sohasida iste'molchilarga turli, sifatlari va ta'lif xizmatlarini ko'rsatish hamda ularning talab va ehtiyojlarini tizimli o'rganishga qaratilgan marketing tadqiqotlarining zamonaviy usul va vositalardan foydalanish mexanizmini takomillashtirishni talab etadi.



Hozirgi davrda aholining bilim darajasi, ta'lrim va fan sohalarining rivojlanganligi, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali jamiyat taraqqiyoti va milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning zaruriy shartiga aylandi.

Ta'lrim sohasining mamlakat aqliy salohiyatini yuksaltirish omili ekanligi, globallashuv sharoitida inson resurslarining iqtisodiyotni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishga aylanganligi, ta'limni iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi texnologik o'zgarishlar ko'proq inson kapitali mahsuli ekanligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyot va ta'lrim sohasining rivojlanganlik darajasi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning o'zaro bog'liq elementlari sifatida o'zaro ta'sirning kuchayib borishi asosida ta'lrim tizimiga qilinayotgan xarajatlar ta'lrim sohasining aholi farovonligini oshirish manbai va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili ekanligidan dalolat beradi.

Shu sababli mamlakatimizda oliy ta'lrim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari sifatida oliy ta'lrim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'nnaviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish, sohada sog'lim raqobat muhitini shakllantirish, jahon miqyosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimni ta'minlash kabi vazifalar belgilangan^[1] bo'lib, mazkur vazifalarning ilmiy-amaliy ahamiyati tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR NING TAHLILI

Hozirgi davrda ta'lrim tizimida tashkiliy qayta qurishning nazariy asosini resurslarga bog'liqlik nazariyasi va neoinstitutsiional nazariya tashkil etadi. Birinchi nazariyaga muvofiq tashkilot faoliyatining samaradorligi uning resurslarga moslashuvchan layoqatiga ega ekanligiga bog'liq. Unga muvofiq, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga iqtisodiy oqilonalik bilan moslashish lozim.

Neoinstitutsiional nazariya esa, aksincha, birinchidan, tashkilot barqarorligiga; ikkinchidan esa, agar tashkilot tabiatи va madaniyatiga zid bo'lgan o'zgarishlar bo'lsa, unga qarshilik ko'rsatish g'oyasiga asoslandi. Uning tarafdarlari islohotlarni amalga oshirishda hukumat yuqorida qayd qilingan holatlar bo'yicha muvofiqlikni ta'minlashi, davlat o'z diqqatini ta'lrimni rivojlantirishga ajratilayotgan resurslar ustidan nazoratni o'rnatishga qaratishi lozim deb hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta'lrim tizimida bozor munosabatlarini kengaytirish g'oyasi tarafdarlari fikrlariga zid keladi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A. O. Ochilov tadqiqotlarida: "Ta'lrim xizmatlari bozorini boshqarish samaradorligini oshirishda: kontrakatsiya shartnomalari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish, oliy ta'lrim muassasasalari professor-o'qituvchilar salohiyati va moddiy-texnik bazasining raqobatbardoshligini ta'minlash, mehnat bozorining zamonaviy talablari, undagi jiddiy o'zgarishlarni o'rganib, ta'lrim xizmatlari bozoriga tatbiq etish"^[3] lozimligi e'tirof etiladi.

Mazkur yo'nalishda tadqiqot izlanishlarini amalga oshirgan G. N. Axunovaning fikricha, "...talab va taklif asosida oliy ta'lrim muassasasalarida sifatli ta'lrim xizmatlari ko'rsatilib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda davlat raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishidan, jamiyat shaxsiy va intellektual salohiyat majmuiga ega bo'lishidan, iste'molchi va buyurmachilar korxonaning kadrlar salohiyati oshirilishidan; oliy ta'lrim muassasasalari rahbarlari muassasasa nufuzining oshishi va taraqqiyotidan, bitiruvchilarning kafolatli ish o'rinnariga ega bo'lishidan, tala-balar qobiliyatları rivoji, iqtidor shakllanishi va bilimli bo'lishidan manfaatdor hisoblanadi"^[4].

D.Nabiiev tadqiqotlarida, "Ta'lrim xizmatlari bozorining marketing strategiyasini ishlab chiqish jarayonida hal qilinishi kerak bo'lgan muhim masala – ta'lrim xizmatlari bozori segmentining jozibadorlik darajasini aniqlash, bozor segmentining jozibadorligini baholashda turli xil marketing vositalarini qo'llash, jozibadorlikni tahlil qilish usullarini talab darajasi va tanlangan bozor segmentining imkoniyatlariga asoslanishi qayd etiladi"^[5]. J. A. Abdulayevning tadqiqotlari davomida "...mintaqaviy ta'lrim xizmatlari bozorida davlat ta'lrim muassasasalari va xususiy sektor faoliyat yuritishi uchun teng raqobat sharoitlarini ta'minlash masalasi juda muhim masaladir. Bu esa shunga olib keladiki, xususiy sektorda oliy ta'lrim muassasasalari faoliyatini modernizatsiya qilish mexanizmlarini shakllantirish zamonaviy voqelik talab qilgandan ancha sekinroq bo'lib, bu umuman ta'lrim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin" degan xulosaga keladi^[6].

Bizning fikrimizcha, ta'lrim tizimini rivojlantirish borasida har bir mamlakat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda, o'ziga xos xususiyatlari va an'analari asosida mazkur tizimda bozor va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi o'rtasida maqsadga muvofiq nisbatni topishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritishda tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, korrelyatsiya va kompleksli yondashuv usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, vazirliklar va idoralardan olingan ma'lumotlar, statistik hisobot tahlili amalga oshirilgan.



TAHLIL VA NATIJA

O'zbekistonda oliy ta'limgizni yanada rivojlantirish, sifat darajasini oshirish va mehnat bozoridagi o'rnni mustahkamlash maqsadida Jahon Banki tomonidan qo'llab-quvvatlovchi loyihamalga oshirilmoqda. Jahon Banki va O'zbekiston Hukumati tomonidan 2017-yil 11-aprelda "Oliy ta'limgizni modernizatsiya qilish" loyihasi borasida kredit kelishuvi tasdiqlandi. Ushbu loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliya ta'limgiz, fan va innovatsiyalar vazirligi nazorati ostida amalga oshirilgan bo'lib, loyiha amaliy ijrosi: yuqori malakali mutaxassislarini xalqaro standartlar darajasida tayyorlashni ta'minlash; respublikamizda oliy ta'limgiz tizimida zamonaivi ta'limgiz texnologiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish bo'yicha ilg'or xorij tajribasini joriy etish, xususan, virtual ta'limgiz muhiti (Virtual Learning Environment – VLE), axborotlashgan menejment tizimi (Management Information System – MIS); respublikamizda ilmiy-tadqiqot va ta'limgiz muassasalarini o'ttasida o'zarlo aloqa qilish asosida uzlusiz ta'limgiz va malaka oshirish tizimini shakllantirishga ko'maklashish; yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashni nazarda tutuvchi maqsadli ta'limgiz dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiq holda tashkil etish imkoniyatini berdi.

Shuningdek, mamlakatimizda OTMlarni rivojlantirishning marketing strategiyasi va ularni oliy ta'limgiz tizimida qo'llash imkoniyatlari, shu bilan birgalikda: maqsadli yo'naltirish - marketing strategiyalari oliy ta'limgiz xizmatlaridan foydalanuvchilarning talablarini inobatga olgan holda bozorning ma'lum bir segmentida OTMning mos maqsadlariga yo'naltirilganlik, rentabellik - marketing strategiyalari, reklama, ta'limgiz xizmatlarining yangi turlari va innovatsion mahsulotlarni bozorga olib chiqishga sarflanadigan xarajatlar marketingining rentabellik ko'rsatkichlari (Marketing Returnon Sales-MROS) va investitsiyalari (Returnon Marketing Investments) daromadliligi orqali baholash taklif etildi. Shu bilan birga, axborot-marketing platformalaridan foydalangan holda raqamli texnologiyalar yordamida marketing ma'lumotlarini tayyorlash, to'plash, tahlil qilish va talqin qilish bilan bog'liq tegishli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Fikrimizcha, yuqoridagilar bilan birga oliy ta'limgizni rivojlantirishda marketing strategiyasiga e'tibor berish lozim. Umumiy natija strategik boshqaruvning asosini tashkil etuvchi istiqbolli rejalashtirish imkoniyatini beradi. Istiqbolli rejaning amalga oshirilishi boshqaruvning hal qiluvchi tarkibiy qismi hisoblanadi.

OTMlar tomonidan ko'satiladigan asosiy va qo'shimcha ta'limgiz xizmatlarini iste'molchilar manfaatini hisobga olgan holda "baho-sifat" mezoni bo'yicha (xalqaro ta'limgiz standartlarida integratsiya, kredit-modul tizimi asosida sifatni baholash, OTMlarning moliyaviy erkinligini oshirish trendini hisobga olgan holda) tanqidiy marketing tahlil qilish; raqobatbardoshlikni baholash va mehnat bozoridagi talabning o'zgarishini inobatga olgan holda qo'shimcha ta'limgiz xizmatlari (malaka oshirish kurslari, dual tizimini, treninglar va masofaviy ta'limgiz usullarini kengaytirish va h.k.) assortimentini kengaytirish masalalarini hal qilish; ta'limgiz xizmatlarining yangi turlarini tashkil etish, shuningdek, innovatsion mahsulotlarni qo'llashning yangi usullari va yo'nalishlarini takomillashirish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish (innovatsion texnologiyalarni tijoratlashtirish, startaplarning ekotizimini rivojlantirish va boshqalar) lozim.

Oliy ta'limgiz muassasalarini o'z faoliyati va ko'rsatayotgan xizmatlarining sifati doimiy ravishda oshirib borishi, iste'molchilar talabini o'rganish maqsadidagi chiziqli diskriminant tahlil ((Lineer Discriminant Analysis (LDA)) yordamida amalga oshiriladi (1-jadval).

1-jadval: Oliy ta'limgiz muassasalarida ta'limgiz sifatini baholash bo'yicha chiziqli diskriminant funksiya koefitsientlari^[7]

Mustaqil o'zgaruvchilar	OTM nomi			
	QarMII	AnDU	TDIU	Boshqalar
Ta'limgiz berish usullari qoniqtiradimi (o'quv dasturlari, ta'limgiz berish metodlari, amaliy mashg'ulotlar, nazariy bilim, talabalarning ilmiy ishlari)?	-0,014	-0,133	-0,348	-0,038
Ta'limgiz berish jarayoni axborot texnologiyalari, kompyuterlar, internet, kutubxonalar, zamonaviy auditoriya, darsliklar bilan ta'minlanganligi qoniqtiradimi?	-0,095	-0,256	0,586	-0,074
O'qituvchilarning professionalligi (fan buyicha bilimi, o'qitish qobiliyati, talabalar bilan muomala, mavzuga qiziqitirish qobiliyati) qoniqtiradimi?	0,437	1,342	0,714	1,028
Talabalar bilan darsdan tashqari ishslash (dam olish, sport, madaniy tadbirlar, ta'limgiz muassasasasi yotoqxonasi, talabalar klubii) qay darajada?	-0,092	-0,471	-0,596	-0,448
Ta'limgiz xizmatlari qoniqtiradimi (mavjud mutaxassisliklar va ixtisosliklar, ta'limgiz berish turlari kunduzgi, kechki, sirtqi)?	1,267	1,253	1,269	1,266
O'quv jarayonini ishlab chiqarish va amaliyat bilan bogliqligi?	-1,410	-1,075	-1,115	-1,065
O'qitilayotgan fanlar kelajakda ish jarayonida qanchalik ahamiyatli deb xisoblaysiz?	1,294	0,738	0,366	0,696



Siz ta'lrim olayotgan oliy ta'lrim muassasasida mustaqil ta'lrim olish olish uchun qanchalik sharoit yetarli deb hisoblaysiz?	1,119	1,368	1,087	1,040
Siz tugallayotgan oliy ta'lrim muassasasida kadrlar tayyorlash sifatini qanday baxolaysiz?	0,350	0,521	0,181	0,884
Bitiruvchilarning kasb maxorati (amaliy va kasbiy muammolarni xal kilish qobiliyati, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish qobiliyati, raqobatbardoshlik, jamoada ishlay olish)	2,103	2,430	2,309	2,016
Agar siz yana abiturientlik davriga qaytsangiz, tanlovingizni takrorlagan bo'larmidингиз?	-0,377	0,017	0,075	-0,297
(Konstanta)	-10,799	-15,224	-10,857	-10,603

Oliy ta'lrim muassasasalarida ta'lrim sifatini baholash bo'yicha chiziqli diskriminant funksiya natijalari bo'yicha quyidagi xulosalar qilindi: taqqoslanayotgan barcha OTMlarda ta'lrim berish usullari ta'lrim oluvchilarni yetarli darajada qoniqtirmaydi (o'quv dasturlari, ta'lrim usullari, amaliy mashg'ulotlarni olib borish jarayonlari, nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ilmiy ishlar, masofaviy ta'lrim tizimi va b.); ta'lrim berish jarayoni axborot texnologiyalari (ayniqsa, koronovirus pandemiyasi davrida sifatlari masofali o'qish tizimiga bo'lgan talabni hisobga olgan holda), kompyuterlar, internet, kutubxona, zamonaviy auditoriya, darsliklar bilan ta'minlanganlik holatlari bo'yicha faqat Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ta'lrim sifatini oshirishga ijobji bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi.

("Registrar ofis" platformasining yaratilishi); barcha ta'lrim muassasasalarida talabalar bilan darsdan tash-qari ishslash holatlari, jumladan, dam olish, sport, madaniy tadbirlar, ta'lrim muassasasasi yotoqxonasi, talabalar klubi kabilar faoliyati qoniqtirmaydi; Natijalar bo'yicha quyidagi chiziqli diskriminant funksiyalarini oldik:

$$D_{QarMII} = -0,014Q1 - 0,095Q2 + 0,437Q3 - 0,092Q4 + 1,267Q5 - 1,410Q6 + 1,294Q7 + 1,119Q8 + 0,350Q9 + 2,103Q10 - 0,377Q12 - 10,799$$

$$D_{AnDU} = -0,133Q1 - 0,256Q2 + 1,342Q3 - 0,471Q4 + 1,253Q5 - 1,075Q6 + 0,738Q7 + 1,368Q8 + 0,521Q9 + 2,430Q10 - 0,017Q12 - 15,224$$

$$D_{TDIU} = -0,348Q1 + 0,586Q2 + 0,714Q3 - 0,596Q4 + 1,269Q5 - 1,115Q6 + 0,366Q7 + 1,087Q8 + 0,181Q9 + 2,309Q10 + 0,075Q12 - 10,857$$

$$D_{boshq} = -0,038Q1 - 0,074Q2 + 1,028Q3 - 0,448Q4 + 1,266Q5 - 1,065Q6 + 0,696Q7 + 1,040Q8 + 0,884Q9 + 2,016Q10 - 0,297Q12 - 10,603$$

Ta'lrim muassasasalarida o'quv jarayonining ishlab chiqarish bilan bog'liq darajasi yetarli emasligini ko'rsatdi; universitetga sodiqlikni bildiruvchi ko'rsatgichda (agar siz yana abiturientlik davriga qaytsangiz, tanlovingizni takrorlagan bo'larmidингиз) TDIU talabalari tarafidan ijobji natijalar qayd etilgan. Shu munosabat bilan oliy ta'lrim tizimida marketing strategiyalarini ishlab chqishda asosiy va qo'shimcha ta'lrim xizmatlari turini kengaytirish, yangi innovasion mahsulotlarni bozorga olib chiqish, tadqiqot sektori salohiyatidan samarali foy-dalanish masalalarini hisobga olish talab qilinadi.

Oliy ta'lrim tizimida uzoq muddatli marketing strategiyasini ishlab chiqishda milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uning ustuvor tarmoqlarida amalga oshirilayotgan modernizasiya jarayonlari va rivojlantirish dasturlarida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilishi kerak (bozor segmentlari bo'yicha, masalan, to'qimachilik va engil sanoat, kimyo, transport va qurilish tarmoqlari, axborot texnologiyalari sohasi va boshqalar), yetakchi universitetlar uchun o'z brendlarni (nomoddiy aktivlar) yaratish muhim ahamiyat kasb etadi (Garvard, Stenford, Oksford, Kembridj va boshqalar), marketing investisiyalarining oshishiga olib keladigan marketing tadqiqotlariga katta e'tibor qaratilishi kerak.

Innovatsion iqtisodiyotni barpo etishning muqarrar sharti bo'lgan ta'lrim va fanning ittifoqi jahon taraqqiyotining yetakchi trendi, XVIII asr oxiri – XIX asr boshidagi nemis gumanizmining buyuk vakili V.Gumboldt prinsipi deb ataladigan prinsipning, ta'lrim faoliyatining oliy maqsadi bo'lgan individuumni universal rivojlantirish trendining ifodasidir [8]. "Dars berish va tadqiqot olib borish birligi" yoki "fan asosida o'qitish" ta'sirida aniq-ravshan ifodalananadigan mazkur prinsip hozirgi kunda ham juda dolzarbdir.

Ijtimoiy o'zgarish jarayonlarining hozirgi bosqichi ta'lrimni ildam rivojlantirish va kadrlarning yangi avlodini tezkorlik bilan tayyorlashni taqozo etadi. Bu kadrlar mehnat bozorida raqobatbardosh, jadal o'zgarib borayotgan faoliyatga yaxshi tayyorlangan, tez moslashadigan, shuningdek, o'zini o'zi rivojlantirishga va o'zi ko'rsatishga undovchi yuqori umumiy madaniyat egasi bo'lishi darkor. Ushbu jarayonda natijadorlik, ta'lrim xizmatlari bozorida oliy ta'lrim muassasasalari raqobatbardoshligini shakllantirishni o'ziga xos omillari majmuasi bilan belgilanadi. Ularning xarakterli ta'siri ta'lrim xizmatlari bozori ishtirokchilarining o'zaro aloqalari orqali namoyon bo'ladi.



Ta'lim xizmatlari bozoriga innovatsion omillarning ta'siri ishlab chiqarish bilan o'zaro aloqada bo'ladigan, o'quv jarayoniga yangiliklarni kiritish va axborot texnologiyalari qamrovingin kengligi orqali namoyon bo'ladi [10].

Iqtisodiyotning innovatsion sharoitida ta'lim tizimida yangi innovatsion xizmat turlarini keng joriy qilish, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi o'ta muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, bu borada oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini tubdan yangilash va modernizatsiyalash, ularni innovatsion o'quv va ilmiy-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarini maqbullashtirish, ta'lim standartlarini takomillashtirish hisobiga ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish shakllarini joriy etish, kadrlar mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiyot soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy ma'lumotga ega mutaxassislarini tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish darajasiga bog'liq.

Xalqaro omillarning xarakterli ta'siri turli xil ta'lim va ilmiy xalqaro integratsiya vositalari, madaniy almasniuvlar, xalqaro reytinglarda ishtirok etish va jahon bozorining konyunkturasi orqali namoyon bo'ladi. Ta'sir ko'lami bo'yicha, ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim tashkilotlari raqobatbardoshligining strategik, taktik va operatsion omillari ajratiladi. Odatda jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasi, ijtimoiy-madaniy aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari va texnologik yangiliklarni amalga oshirish darajasini belgilab beradi.

Jamoat institutlari rivojlanishining past darajasi, texnologik qoloqlik va milliy iqtisodiyot samaradorligining yetarli emasligi bilan innovatsiyalar, aholini keng qamrab olish va ta'lim jarayonlarining sifatini oshirish mumkin bo'lmaydi. Bu esa ushbu omillar guruhining o'zaro ta'sirini strategik xususiyatlarini belgilab beradi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilganidek, har bir oliy o'quv yurtining molivayi mustaqilligi ta'minlanishini hisobga olsak, oliy ta'lim tizimida jiddiy raqobat muhiti shakllanayotganini tan olmasdan ilojimiz yo'q. Bunday sharoitda har bir oliy o'quv yurti, xususan, davlat oliy o'quv yurtlari o'z faoliyatini qaytadan ko'rib chiqishi, ish beruvchilarning kadrlarga bo'lgan talabidan kelib chiqib, mutaxassislik yo'nalishlarini optimallashtirishni talab etadi. Bunda esa har qanday bozor iqtisodiyoti sharoitida, barcha sohalarga birdek zarur bo'lgan marketing strategiyasi alohida o'rinn tutadi. Zero u xoh davlat, xoh xususiy oliy o'quv yurti bo'lsin, bundan qat'iy nazar, raqobatbardosh marketing strategiyasini to'g'ri tanlanishi ta'lim muassasalarini orasida yaratilgan kuchli raqobat muhitida o'zining munosib o'rniga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

"Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda har bir oliy ta'lim muassasalarida bugungi mehnat bozori takliflarini tahlil qila oladigan, ish beruvchilar va xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli shartlar asosida aloqalarni o'rnata oladigan yangi marketing xizmatini yo'nga qo'yish, mavjud marketing bo'limlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish bugungi kunning talabidir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy majlisga Murojaatnomasi. https://uz.a.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-mazhlisga-murozaatnomasi_198650
3. A. O. Ochilov. Oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligi, samaradorligi va uni moliyalashtirishni boshqarishni takomillashtirish yo'llari. Monografiya. –T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2011. – 15 b.
4. G. N. Axunova. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolar. Monografiya. – T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2005. – 109-bet.
5. Д. Набиев. Совершенствование управления маркетингом образовательных услуг в условиях модернизации экономики. Автореф. ... докт. экон. наук. – Т., 2009. – 48 с.
6. J. A. Abdullayev. Oliy ta'lim cohasida davlat-xususiy sherliklik mexanizmlarini qo'llashdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. –№ 6, noyabr-dekabr. –2019 yil. –82-83 bet.
7. G. S. Sa'dullayeva. Oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 13-bet.
8. М. Калчугина "Синергия образования и науки как инновационный ресурс" // Мировая экономика и международные отношения, 2008. №10. – С. 84.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatinining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-slonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

